



## Azimxuja Ataxodjayev

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Tarix kafedrası professor v.b.,

tarix fanlari doktori

e-mail: [azimxoja\\_1962@mail.ru](mailto:azimxoja_1962@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14287816>

## ILK O‘RTA ASRLARDA TURON VA ARAB SIVILIZATSIYALARINING UYG‘UNLASHUV JARAYONI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, ilk o‘rta asrlar (VII asr ikkinchi yarimi - VIII asr o‘rtalari) Markaziy Osiyoning tarixiy-madaniy viloyatlari – Xuroson va Movarounnahrda Arabiston yarim orolidan islom dinining kirib kelishi bilan bog‘liq jarayonlar tahlil etilgan. Maqolada islom dinining o‘ziga xos taraqqiyot bosqichida bo‘lgan o‘lkalarga tarqalishi va uning oqibatlari xususida fikr yuritiladi. Jahon va mintaqa sivilizatsiyasi uchun yangi bosqich bo‘lgan davr - islom ma‘rifati va madaniyati davrining Movarounnahrda ma‘rifat va madaniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuv jarayoni va uning yuksak sivilizatsion ahamiyati o‘z aksini topgan. Movarounnahr va Xurosonning islom sivilizatsiyasiga qo‘shilishi hodisaning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti uchun muhim voqelik bo‘lganligida qayd etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Markaziy Osiyo, Arabiston yarim oroli, Arab xalifaligi, Movarounnahr, ilk o‘rta asrlar, sivilizatsiya uyg‘unlashuv, madaniyat, din, me‘morchilik, san‘at va yozuv.

Markaziy Osiyo va Arabiston yarim oroli geografik jihatdan qo‘shni bo‘lmasada, bu hududlarda yashagan yerli xalqlar taqdirida ilk o‘rta asrlar (milodiy

V-VIII asrlarning birinchi yarmi)da tarix taqozosi bilan o‘zaro mushtaraklik, etnomadaniy uyg‘unlashuv holati vujudga keldi.

Ma’lumki, insoniyat uzoq sivilizatsion bosqichni bosib o‘tish jarayonida turli ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy va etno-madaniy hayot bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z boshidan kechirgan. Bu jarayonlar turli mintaqalarda yashovchi xalqlarni o‘zaro ta’sir doirasiga tortgan. Xalqlarning turmush tarzidagi o‘xshashliklar va farqlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ikki xil turmush tarziga ega etnoslarning o‘zaro bir-birini tushunishi, aynan bir xil hayot kechiruvchi etnoslarga nisbatan bir qadar murakkab kechadi. To ular bir-birlarini anglab yetgunlariga qadar muayyan tarixiy davr talab qilinadi. Shu ma’noda, Markaziy Osiyo vohalaridagi xorazmiy, sug‘diy, boxtariy, chochlik va farg‘onalik elatlar hamda ularga tutash hududlardagi turkiy qabilalar o‘rtasidagi munosabatlar tarixiy davrlarda turli sinovlardan o‘tgan. Asta-sekin doimiy yonma-yon yashash, quda-andachilik orqali qon-qardoshlik an’analarining yo‘lga qo‘yilishi bois o‘zaro anglash tushunchasi shakllanib borgan. Ilk o‘rta asrlarda esa Markaziy Osiyoning etnik va e’tiqod bilan bog‘liq manzarasida hech bir muammo ko‘zga tashlanmaydi. Sababi, Markaziy Osiyoning ham o‘troq hayot kechiruvchi vohalardagi aholisi, ham dashtliklaridagi yarim ko‘chmanchi va ko‘chmanchi aholisi mentalitetida azaldan etnobag‘rikenglik va diniy tolerantlik hissiyotlari shakllanib bo‘lgan edi. Qolaversa, asrlar davomida bu zamindagi o‘troq va ko‘chmanchi elatlar tarixning turli davrlarida o‘zaro sintezlashib, yuksak tarixiy - madaniy makon yaratib bo‘lgan edilar [1. – B. 40-41].

Markaziy Osiyodan janubi-g‘arbda joylashgan Arabiston yarim oroli aksariyat qismi sahro va bir qismi kichik-kichik vohalardan iborat bo‘lgani bois, aholisining katta qismi turmush tarzida, urf-odatida, umuman madaniyatida ko‘chmanchilarga xos jihatlar ustivor edi. Biroq yana tarixiy bosiqichlar silsilasida bu holat yarim orolning vohalaridagi yarim o‘troq, yarim ko‘chmanchi qabilalari hamda ko‘chmanchi badaviy arablari o‘rtasidagi munosabatlarning yaqin bo‘lishiga monelik qilmagan. Bu ma’lum ma’noda xuddi Markaziy Osiyodagi vohalardagi

o'troq aholi va dashtliklardagi ko'chmanchilar o'rtasidagi munosabatlarga ham o'xshab ketar edi.

Turli etnoslarning madaniy uyg'unlashuvi jarayoniga fanda Buyuk ipak yo'li deb nom olgan savdo-sotiq, integratsiya va mingratsiyalar uchun xizmat qilgan transmintaqaviy harakat chizig'ining ulushi katta bo'ldi. Eng asosiy jihati, Markaziy Osiyo mazkur yo'llar bog'laminin aynan chorrahasida joylashagan edi. Shu bois turli maqsadlarga xizmat qilgan karvon yo'llari mintaqada integratsion jarayonlarning jadal kechishini ta'minladi. Shunday bo'lsa-da, ikki mintaqqa xalqlari sivilizatsiyasini yaqinlashtirgan va uyg'unlashtirgan yana qator omillar mavjud edi. Ma'lumki, Buyuk ipak yo'lining boshlanishi miloddan oldingi 1-ming yillikka borib taqaladi [2. – B.77].

Minglab chaqirimlar oralig'ida qatnagan karvonlar markaziyosiyoliklar va arablarning harakatchanligi tufayli ularni ma'lum davr va mintaqada o'zaro muloqotga kirishlariga imkon yaratgan deyishga asosimiz bor. Chunki, Markaziy Osiyodan janubi-g'arb tomon yo'nalgan karvonlar va Arabiston yarim orolidan shimoli-g'arb tomonga yurgan karvonlar bilan ma'lum bir hududda kesishishi va o'zaro muloqotga kirishishi tabiiy edi. Ikki mintaqqa savdo va diplomatiya vakillari ilk bor to'qnashgan hudud bu Kichik Osiyo va O'rtaer dengizi qirg'oqlari – Shom edi. Chunki Samarqanddan yo'lga chiqqan karvonlar Eron orqali, arab savdo karvonlari esa Makka va Yasrib orqali Shomga kirib kelardilar. Shu yerda ular uchrashganlar va bir-birlarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotlaridan boxabar bo'lganlar [3. B.262-263].

Yana tarixning chuqurroq qa'riga nazar solib, bu ikki mintaqqa xalqlarining o'zaro yaqinligini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi manzaraning guvohi bo'lamiz. Miloddan oldingi VI asrdan o'z hududlarini kengaytirgan Ahamoniylar saltanati tarkibida turli til va din vakillari bo'lgan elat hamda qabilalar bor edi. O'sha davrlardan mintaqalararo yaqinlashuv jarayoni boshlagan desak hatto bo'lmaydi. Chunki Ahamaniylar o'z qo'shinlarini turli xalqlar hisobiga to'ldirib borgan va ular

orasida Markaziy Osiyo vakillari salmoqli o‘rin egallagan. Xususan, saklar, xorazmiylar, sug‘diylar va boxtarlar Misr, Bobil va Eron hududlarida ham yashashgan. Ular saltanatning jangchilari, hunarmandlar, savdogarlar va davlat xizmatchilari bo‘lishgan [4. - B. 280-281]. Xuddi shu kabi hodisa Arabiston yarim oroli vakillariga nisbatan qo‘llanganligi tabiiy. Bu holat ham ikki hudud ahlini o‘zaro bir-birini tanishi uchun imkon yaratgan.

Ahamoniylar saltanati davrida davlat ishlarini yuritish qadimgi eroniy tilda amalga oshirilgan. Bu til butun saltanatda qo‘llanilgani bois, aynan sug‘diy, xorazmiy, boxtariylar tilli aholining leksik qatlamida qadimgi eroniy atamalar va iboralar ko‘plab qo‘llanila boshlangan. Ilk o‘rta asrlarda sug‘diy va xorazmiy tilning leksik qatlamida qadimiy eroniy atamalar salmog‘i ancha ustuvor sanalgan [5. – B.38-39]. Bundan tashqari, ham eroniylarga, ham markaziyosiyoliklarga, ham arablarga tushunarli bo‘lgan va o‘z tillaridagi atamalar orqali ifodalana oladigan oromiy iboralar – getrogrammalar tizimi saqlanganki, bu oromiy asosli yozuv madaniyati ta’sirining natijasi edi [6. – B.371]. Eng asosiy Ahamoniylar devonxonasi yozilishi bir qadar murakkab bo‘lgan va faqat loy-sopol lavhlarga yozishga mo‘ljallangan mixxatdan voz kechilib, bir qadar qulay bo‘lgan oromiy yozuvi iste’molga kirdi. Oromiy yozuvining butun saltanat doirasida ishlatilishi Markaziy Osiyoning xorazmiy, sug‘diylar va boxtariylariga miloddan oldingi III-II asrlardan oromiy asosli o‘z yozuvlarini yaratish imkonini berdi. Xuddi shu jarayon o‘troq arablarda kechdi. Ular ham shu davrdan o‘z yozuvlariga ega bo‘la boshladilar. Ildizi oromiy yozuviga borib taqaluvchi nabatiy tarmog‘idan arab yozuvlari, fors-oromiy tarmog‘idan sug‘diy yozuvlar tizimi qaror toptirdi [7. – B.105-108]. Keyinchalik bu yozuv tizimlaridan mustaqil yozuvlar paydo bo‘ldi.

Mintaqalardagi xalqlar o‘rtasidagi yaqinlikka savdo, ilm va din ahillari munosib xissa qo‘shganlar. Yunon-makedon davrida (miloddan oldingi IV asr) zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”ning ilmiy ahamiyatli qismlari yunonlar tomonidan o‘zlashtirildi. Saltanat tarkibidagi xalqlar bu asarning forsiy va yunoniy

tarjimalaridan bahramand bo‘ldilar [8. - B.22-39]. Arabiston yarim orolida yashagan olimlari ham muayyan darajada “Avesto”ning ilmiy qismlari bilan Eron zardushtlari orqali tanish bo‘lganliklari shubhasiz.

Miloddan oldingi va milodning boshlaridagi tarixiy jarayonlar markaziyosiyoliklar va arablarning karvon yo‘llarini yana bir necha bor uchrashtirgan. Biroq bu jarayonlar uzluksiz bo‘lgan deya olmaymiz. Chunki, Sosoniylar saltanati bilan Markaziy Osiyoda qaror topgan Turk xoqonliklarining manfaatlari doimo bir-biriga mos kelavermagan. Yo‘llar yopilishi, karvonlar harakatining to‘xtashi o‘zaro muloqotlar uchun yo‘l bermas edi. Biroq yana bir jihat Turk xoqonligi va Vizantiya o‘rtasidagi munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishi, xoqonlik karvonlari va savdo-diplomatik missiyalarining Konstantinopolga yetib borishi kuzatiladi [9.–B.33-38]. Mana shu jarayonda Vizantiya poytaxtida Markaziy Osiyo va Arabiston yarim oroli vakillari uchrashgan bo‘lishi tabiiy hol sanaladi.

Keyingi tarixiy jarayonlar milodning VII asr ikkinchi yarmidan boshlandi. Arabiston yarim orolida Islom dinining qaror topishi va bu dinning mintaqalarga yoyilish jarayoni VII-VIII asrlar muhim voqeligidir. Tarixda bu hodisa turli davlatlar va siyosiy guruhlarining manfaatlari nuqtai-nazaridan baholansa-da, asl bahoni davr va shu jarayonning ishtirokchisi xalq beradi. Arab xalifaligi qo‘shinlari VII asr ikkinchi choragida Erondagi Sosoniylar saltanatini bartaraf etgach, yo‘lni Xuroson tomon burdilar. Agarda Arab xalifaligi ma‘muriyatidagi siyosatchilari va lashkarboshilari Xuroson va Movarounnahr haqida yetarli ma‘lumotga ega bo‘lganlar. Chunki, yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, o‘zaro bevosita va bilvosita aloqalar tarixi ancha boy edi. Tarixiy jarayonlarning borishi Arab xalifaligi qo‘shinlarining Markaziy Osiyo sari yurishlarini taqozo etdi.

VII asr 30-yillarida qaror topgan Arab xalifaligi harbiy yurishlar chog‘ida o‘z davrning qudratli davlatlardan biri Sosoniylarga 636 yildagi Kadis va 642 yildagi Nexovand to‘qnashuvlarida jiddiy talofat yetkazdi. So‘nggi Sosoniy Yezdigerd III ning aholini istiloga qarshi kurashga chaqirig‘i ham zoe ketdi. Chunki Eron xalqi

Sosoniylarning o‘zaro kurashlari, Eftaliylar, Vizantiya va Turk xoqonligi bilan kechgan tinimsiz to‘qnashuvlaridan bezor bo‘lganligi ham rost edi. Hatto mahalliy hukmdorlar qarshilik kurashidan bosh tortdi. Besh asrlik (III–VII) saltanat o‘n yetti yil (633-651) davomida barham topdi [10. - B.216]. Xususan, 642-644 yillarda Eron va Turon chegarasidagi tarixiy viloyat Xuroson egallandi. Marv shahri keyingi harakatlar uchun istehkom vazifasini o‘tadi.

Bu davrda Markaziy Osiyodagi G‘arbiy Turk xoqonligida ham kuchli markazlashgan hokimiyat yo‘q edi. Har bir o‘lka bir necha mulklardan tashkil topgan konfederatsiyaga birlashgandi. Sug‘d va Toxariston konfederativ mulklari, Choch va Iloq xoqonlik vassalligidagi yarim mustaqil mulkligi, Farg‘ona shimoliy va janubiy hokimliklari mavjud edi. Ustrushona, Chag‘oniyon, Kabodiyon, Xuttalon, Rasht, Darvoz, Badaxshon (Vaxon, Shug‘non, Rushon) kabi o‘lkalar ham yarim mustaqil mulklar sifatida o‘z hokimlari tomonidan boshqarilardi [11. -B.154]. Bu holat Markaziy Osiyo xalqlarining Arab xalifaligi qo‘shiniga qarshi birlashib kurashiga to‘siqinlik qildi. Qolaevera, Xalifa Umar (13/634-635 – 23/643-644) va xalifa Usmon (23/643-644 – 35/655-656) davrlaridagi arab ma‘murlari Markaziy Osiyodagi ichki siyosiy vaziyatni o‘rganib, tahlil qilgan edilar [12. -B.15].

Harbiy harakatlar Arab xalifaligi qo‘shini tomonidan 651 yilda Xurosonni egalashini ta‘minladi. Ammo Movarounnahrda egallash jarayoni VII asr 2-yarmidan boshlanib, to VIII asr so‘ngiga qadar davom etdi. Aslini olganda Arab xalifaligi ma‘muriyati uchun Movarounnahrni qo‘lga kirishdan maqsad bu o‘lka tabiiy boyliklariga ehtiyojdan tashqari, bu yerda shakllangan yuksak madaniyatni umumislom madaniyatiga uyg‘unlashuvini ta‘minlash ham bo‘lgan. Chunki qarshilik kurashining davomiyligi (deyarli yuz yildan ziyod), voqealar rivoji dinamikasi, islom dini qabul qilish jarayonining murkkabliklari manzarasida bu tarixiy haqiqatni kuzatishimiz mumkin. Yana bir narsani xolis e‘tirof etish kerakki, Sug‘d va Farg‘ona ixshidlari, Buxoro buxorxudotlari va vardonxudotlari, Xorazm xorazmshohlari, Tohariston va Chochning tegin va tudunlari va hatto G‘arbiy Turk



xoqonligi-yu, Turgash xoqonligining xoqonlari har doimo ham arablar va islom diniga boʻlgan munosabatlarida faqat salbiy holatda boʻlmaganliklarini kuzatishimiz mumkin. Bunga quyidagilarni misol qilib keltirish joiz boʻladi: Sugʻd ixshidlari garchi Arab xalifaligiga qarshi urushayotgan tomon boʻlsa-da, ayrim holatlarda Xuroson noiblari tomonida turib mintaqadagi beqarorlikka qarshi choralar qoʻllashgan. Jumladan, 689-704 yillarda Termizda isyon koʻtargan Muso harakatini bostirishda Sugʻd ixshidi Tarxun (700-710) Xuroson noibi Mufaddal ibn al-Muhallab ibn Abu Sufra (82-85 / 702-704) yordam berib, Xuroson noibligi siyosatining mahalliy aholiga nisbatan yumshatish choralarini izlagan. Bundan tashqari, 750 yilda Buxorxudot Qutayba ibn Tugʻshoda (739/740 -753) Abbosiylar targʻibotga qarshi bosh koʻtargan Sharik ibn Shayxni bostirishda Abu Muslimga yordam berdi. [13. -B.347, 95-113]. Bu holatlar tarixda hali oʻzining holis bahosini olgan emas. Bu oʻsha davr qarashlari bilangina baholanishi mumkin xolos. Ehtimol shu yoʻl bilan mahalliy hukmdorlar ichki vaziyatni oʻnglash, oʻz xalqining tinchligi va farovonligi uchun bu harakatlarini toʻgʻri deb anglab yetgan boʻlsalar kerak.

Tarixiy jarayonlar kesimida VIII asr oʻrtalariga qadar Xuroson, Toxariston, Chagʻoniyon, Sugʻd, Ustrushona, Choch, Fargʻona, Xorazm, Koshgʻar kabi Markaziy Osiyoning yuksak iqtisodiy, betakror madaniy va maʼnaviy muhiti shakllangan tarixiy-madaniy oʻlkalariga islom dinining kirib kelishi hamda bu hududlarning Arab xalifaligi tarkibiga kiritilishi yangi bir davriy bosqichga asos soldi [14. -B.140-145].

Garchi islom dastlab dini qurol, soʻngra maʼrifiy targʻibot va tashviqot orqali joriy etilgan boʻlsa-da, qadimdan oʻziga xos maʼnaviyat va maʼrifat egalari boʻlgan Markaziy Osiyo xalqlari asta-sekin islom dinining yuksak tamoyillarga asoslangan aqidlarini qabul qilib, oʻz madaniyatlarini islom madaniyati bilan uygʻunlashuvi sari yoʻl tutdilar. Ilk oʻrta asrlarning soʻnggi bosqichi, yaʼni VIII asr avvalidan boshlab, mintaqada islom dini asoslari joriy qilina boshlandi. Dastlab mahalliy hukmdorlar, soʻngra aholi orasida islom dinini tarqalib, yangi maʼrifiy maskanlar

paydo bo'ldi. Zardushtiylar, nasroniylar va hatto moniylarning ibodatxonalari o'rniga masjid va madrasalar bunyod etildi. Agar tarixni to'g'ri talqin etish zarur deb bilsak, Arab xalifaligi yurishlariga berilayotgan bahoda ham xolis bo'lishimiz zarur bo'ladi. Xususan, bu yurishlar natijasida joylardagi zardushtiylik ibodatxonalari buzilib, o'rniga masjidlar bino etilgan edi. Mahalliy rasmiy yozuvlar (sug'diy, xorazmiy, boxtariy)da ish yuritish to'xtatildi. Asrlar davomida to'plangan boy meros va madaniy boyliklar talon-taroj qilindi. Dunyoviy ilm sohasi vakillari ta'qibga olindi. Ya'ni Abu Rayhon Beruniy ta'kidlagandek, "(Xuroson noibi – A.O.) Qutayba (ibn Muslim al-Bohiliy hijriy 86-96, milodiy 705-715 yillar boshqaruvidagi davrda – A.O.) Xorazm (nafaqat Xorazm sug'diy, boxtariy va boshqa – A.O.)) xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni butkul yo'q qilib yuborgan edi" [15. - B.70]. Keyingi bosqichda bu yo'qotishlarni to'ldirish zarurati paydo bo'ldi. Bu jarayon bir necha asrlar davom etdi.

Markaziy Osiyoning, xususan uning o'zagi bo'lgan Movarounnahrning Arab xalifaligi tarkibiga kiritilishi esa mintaqadagi tarixiy jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Arab qo'shinlari tarkibida kirib kelgan islom dini targ'ibotchilari Movarounnahrda shakllangan va asrlar davomida mavjud bo'lgan yuksak madaniyatdan unumli foydalanish zaruratini his qildilar. Ular bu ilg'or madaniyatni umumislom madaniyatining bir qismiga aylantirishda o'zaro uyg'unlashuv yo'lidan bordilar. Turli qiyinchiliklar va to'siqlarni yengish uchun Movarounahrga kelib o'rnatilgan ayrim arab zodagonlari va din peshvolari mahalliy halq manfaatining himoyachilariga aylandi. Bu orasida Abu Sayda, Rabi' ibn Imron at-Tamimiy, al-Qosim ash-Shayboniy kabi shaxslar bor edi [16. - B.95-103, 347].

Bundan tashqari, ilg'or fikrlaydigan, islom g'oyalari uchun kurashuvchi musulmonlar orasida Abu Said, imom Ibrohim, Xoris Ibn Surayj kabi radikal o'zgarishlar tarafdorlari paydo bo'ldi. Ular mahalliy zodagonlar bilan birga mintaqadagi boyliklarni olib chiqib ketish emas, ko'proq shu yerda to'planish



iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi, deb hisoblaganlar. Bu o'z navbatida hatto arablararo ixtiloflar va qurolli to'qnashuvlarga sabab bo'ldi [17. - B.101-109].

Abbosiylar hukmronligi davrida (VIII asrning ikkinchi yarmidan) Movarounnahrni islomlashtirishda mahalliy hokimlar, zodagonlar arab zodagonlari va diniy ullaolari bilan hamkorlik qilishdi. Hattoki, xalifalik qo'shinlarini va xalifalarning tansoqchilari orasida movarounnahliklar salmoqli o'rin tutdi [18. - B.168].

Arab xalifaligidan tashqari Xitoyning Tan imperiyasi ham Markaziy Osiyo hududlarini egallash da'vosi bilan yashar edi. Bu vaziyatda Tan imperiyasi Farg'ona ixshidi va Shosh maligi o'rtasidagi ixtilofdan foydalanib, bu hududlarni egallashga urindi. 751 yilda koreys millatiga mansub, Xitoy generali Gao Syan-szi boshchiligidagi qo'shin uyg'urlar va Farg'ona ixshidi madadi bilan yurish boshladi. Bundan xabar topgan Abu Muslim ularga qarshi Ziyod ibn Solih boshchiligida arab va markaziyosiyoliklardan iborat qo'shinni jo'natdi. Talas yaqinidagi jangda Xitoy qo'shinlari tor-mor etildi [19.- B.21]. Bu g'alaba Markaziy Osiyoni Xitoy tajovvuzidan saqlab qoldi. Abu Muslimni esa Movarounahrda Arab xalifaligi va islom manfaatlari himoyachisiga aylantirdi.

Aslini olganda, Talas jangida Markaziy Osiyoda gegemonlik uchun Xalifalik va Tan imperiyasi manfaatlari to'qnashganligini ko'rsatadi. Avvaliga bir-biriga dushman bo'lgan Arab xalifaligi va Markaziy Osiyo kuchlari yangi xatar oldida, umummanfaatlar yo'lida birlashishga majbur bo'ldilar. Hatto xalifalikka raqib bo'lgan turkiylar: turkash va qarluqlar ham arab qo'shinlari tomonida kurash olib bordi [20. -B.19]. Bu esa mintaqa taqdirini hal qilishda muhim o'rin tutdi. Tan imperiyasi talofat ko'rib, Arab xalifaligi Movarounahrda o'z mavqeini yanada tikladi.

Yana bir e'tiborli jihati, xalifalik ma'murlari tomonidan Bag'dod va Damashq kabi shaharlarga olib ketilgan markaziyosiyoliklar taqdiri edi. Ularning ayrimlari janglarda xalok bo'lgan bo'lsa, boshqa bir guruhi, ya'ni g'ulomlar xalifa amaldorlari

ishonchini oqlab, tan soqchilikdan tortib hukmronlik darajasigacha ko‘tarilgan. Tabariyning qayd etishicha: “Ubaydulloh ibn Ziyod olib kelgan 2000 buxorolik kamonchilarning har biri yog‘ochdan yasalgan o‘qlar (nushshab) otuvchi a‘lo darajadagi merganlar” bo‘lishgan [21. - B.44]. Bu g‘ulomlar Xalifaning maxsus gvardiyasiga ham jalb qilingan. O‘z harbiy mahoratlari tufayli o‘rtaosiyolik asirlar hukmdor darajasiga qadar ko‘tarilganlar. Jumladan, hijriy 254-292 (868-905) yillarda To‘luniylar xalifalikda birinchilardan bo‘lib, Misr va Suriyada mustaqil sulolaga asos solishgan [22. - B.74-75]. Turk harbiysi Muhammad ibn Tug‘j avlodlari Ixshidiylar sulolasiga asos solib, bu sulola deyarli 35 yil (323-358 – 934/935-968/969) davomida Misr va Suriyada hukmronlik qilgan [23. - B.75-77]. Shimoliy-g‘arbiy Eron (Ozarbayjon)da, kelib chiqishi Ustrushona turklaridan bo‘lgan Abus-Sajiyning o‘g‘li Muhammad 880 yilda Xalifalik tomonidan Ozarbayjon hokimi etib tayinlangan. U va uning avlodlari – Sajiyalar sulolasi bu yerda 929 yilgacha hukmronlik qilishgan [24. - B.455]. Bu yana bir bor harbiy salohiyatga ega Markaziy Osiyo vakillari bo‘lgan shaxslarning xalifalikda hukmdorlik darajasiga qadar ko‘tarilganligini isbotlaydi.

Tiklanish ishlari dastlab me‘morchilikda ko‘zga tashlanadi. Islom dini uchun xizmat qiladigan muassasa va inshootlarni bunyod etilishida muayyan darajada mahalliy an‘analarga xos me‘moriy yechimlar saqlab qolindi. Yangi masjid va madrasalar tarhida Yaqin Sharq va mahalliy me‘morchilik an‘analari xos unsurlar (gumbazlar, peshtoqlar, islmiy naqshlar) uyg‘unlashtirildi [25. – B.70-71]. San‘at asarlari yaratishda sug‘diy, turk va arab motivlari uyg‘unlasha bordi [26. - B.81-83].

Markaziy Osiyo xalqlarining Arab xalifaligi tarkibiga kiritilishi tomonlarning madaniy-ma‘naviy va ilm-fan sohalarida o‘zaro ta’sir ko‘rsatishiga zamin yaratdi. Bu hodisa keyingi asrlarda, xususan IX-XII asrlardagi taraqqiyot davrida umummusulmon va jahon sivilizatsiyasi xazinasiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

O‘zaro uyg‘unlashuvning yana bir jihat shunda ediki, azaldan Markaziy Osiyo hududi Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan edi. Bu esa asrlar davomida

mazkur hududda integratsion va etnomadaniy jarayonlarning jadal kechishini ta'minlagan edi. Ayniqsa, bu zamin xalqlari ichki tuyg'usi (mentaliteti)ga o'ziga xos milliy murosa va diniy bag'rikenglik (tolerantlik) an'analari to islom dini qaror topguniga qadar shakllanib ulgurgan edi. Bepoyon hududdagi o'troq va ko'chmanchi elatlar – saklar, qang'arlar, dahlar, kushonlar, sug'diylar, xorazmiylar, boxtarlar, toxtarlar, parfiyaliklar, marg'iyonaliklar, chochliklar, farg'onaliklar, usunlar, uyg'urlar va xoqonlikning turkiy qabilalari zardushtiylik, nasroniylik, buddaviylik, moniylik va tangrichilikka e'tiqod qilib, tarixning turli davrlarida o'zaro qarishiq madaniyatlari doirasida yashashga ko'nikkan edilar [27. - B.55-58].

VIII asr boshlaridan Movarounnahrda mahalliy hukmdorlarning tamg'alari va tangalarda arab yozuvli islomiy bitiklar zikr etila boshlandi. Xususan, me'morchilik bezaklari va naqshlarida, pul birligi fulslarda, hunarmandchilik buyumlarida, tikuvchilik, to'quvchilik, kashtachilikda islomiy "bismilloh", "Alloh rabbiy", "Huvalloh" kabi kalomalar o'rin topdi [28. - B.22-25]. Masalan, VIII asr boshlaridan Sug'dda xitoy namunasidagi tangalar o'rnini arab yozuvli islomiy tangalar egalladi. Bu fulslarda islomiy "bismilloh" kalomi joriy etildi. Xususan, Kesh ixshidi tangalari yuzasida "ixshid / dehqon/ Keshsh" va orqasida "Bu fuls Keshda zarb qilingan" jummalari arab tili va yozuvida chekilgan edi [29. - B.54,130-158]. VIII asrning ikkinchi yarmidan Sug'dda mahalliy sug'diy til va yozuvi o'rniga mahkama ishlarida arab tili hamda yozuvining kirib kelayotganligini kuzatiladi.

VIII asrning ikkinchi yarmidan mahalliy tillar (sug'diy, xorazmiy, boxtariy, qadim turkiy) va yozuvlar (sug'diy, xorazmiy, boxtariy, turk-run) o'rniga mahkama ishlarida arab tili hamda yozuvi joriy etila boshlandi. Bu yozuvni o'rganish mahalliy aholi uchun murakkablik tug'dirmagan. Chunki yuqorida aytilganidek, arab yozuvi va mahalliy yozuvlarimizning kelib chiqishi bir tarmoq oromiy yozuviga borib taqalar edi.

Mintaqada islom dinining tarqalishi davriga oid sug'diy tili yozma manbalardan biri turkumi Mug' arxividir. Arxivdagi V 12 va B 29 raqamli

hujjatlarning arab tilida bitilganligi [30. - B.16,26] Sug‘d hukmdorlari devonxonasida arab tilidan xabardor kotiblar bo‘lganligini isbotlaydi. Arxivning I.1 hujjati – arablar vakili Abd ur-Rahmon ibn Subhning Panch hokimi Devashtichga yo‘llagan nomasi o‘ziga xos bo‘lib, noma boshlanmasi islom uchun an’anaviy “bismillahir-rahmanir-rahim” kalimasining sug‘diy shakli “parnam bag‘i damdanak” deb boshlangan. [31. – B.222]. Bu esa Xuroson noibliği tomonida sug‘diy yozuv va tilini biladigan kotiblar bo‘lganligini dalillaydi.

Arablar va islom dini ta’sirida sug‘diylar orasida islomiy ismlar rusm bo‘la borgan. Jumladan, Buxorxudot Tug‘shoda o‘z o‘g‘lini Qutayba deb nomlaydi. Sug‘d ixshidi G‘urakning bir o‘g‘li islomni qabul qilgach, Banichur ismini Yazid ismi bilan to‘ldiradi. Arablar va islomga o‘tgan sug‘diylar ham asosan islomiy nomda bo‘lganlar. Bular al-Muxallab, Abu Xadija Jilon ibn Varrad as-Sug‘diy, Amr al-Fadusbon as-Sug‘diy al-Buxoriy, Ato at-Dabusiy va boshqalar [32. – B.342-441]. Asir sifatida olib ketilgan sug‘diy va turkiy yigitlar xalifalarning tan soqsilari, qo‘mondonlar, diplomatlar va hatto davlat rahbarlariga aylandilar. Misrda hukmronlik qilgan Tuluniylar va Ixshidiylar shular jumlasidandir. Islom dini targ‘iboti uchun jonbozlik qilgan sahobalar esa mahalliy aholi vakillari bilan qonqardosh bo‘lib, hozirda saidlar va xo‘jalar deb ataluvchi ijtimoiy-etnik qatlamni tashkil qilganlar.

Xalifalikning ulkan geosiyosiy va madaniy imkoniyatlari natijasida xanafiy ulamolar Abu Hafs an-Nasafiy, Abu Zayd ad-Dabusiy, faqihlar Abu Nasr al-Iyodiy, Abu Mansur al-Motrudiy, Abu Barokat an-Nasafiy kabilar yetishib chiqdi. Ular islom dini va madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shdilar [33. - B.424]. Qolaversa, movarounahrliklarning mintaqaga islom dinining yoyishdagi xizmatlari ham katta bo‘ldi. Hijriy 94 (712/713) yilda Buxoroda ilk masjid ochilgan bo‘lsa, [34. -B.124-127] keyinchalik mintaqada yuzlab masjidu madrasalar qad rostladi. Bu esa, Movarounnahr shaharlarini islom dini madaniyati markazlariga aylantirdi. Marv,

Buxoro, Samarqand, Nasaf, Kesh kabi shaharlar butun islom dunyosining madaniy markazlari sifatida bo‘y ko‘rsatdi.

Markaziy Osiyoning musulmon savdogarlari tijoratdan tashqari Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Ural va Volga bo‘yi hamda Shimoliy Kavkazda islom dini targ‘iboti bilan ham shug‘ullandilar [35.-B.146].

Xulosa qilib aytganda, dastlab qurol yo‘li bilan kirib kelgan islom dini, keyinchalik mahalliy va arab madaniyatlari uyg‘unligida Markaziy Osiyo xalqlarining yuksak ma‘naviyati, ma‘rifati va madaniyati uchun zamin yaratdi. Markaziy Osiy, xususan Xuroson va Movarounnahr islom olamining eng ravnaq topgan mintaqasi sifatida jahon tamaddunidan munosib o‘rin oldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ataxodjajev A. Ilk oʻrta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sugʻd munosabatlari . – Toshkent: ART-FLEX, 2010. – 40-41 betlar.
2. Rtveladze E.V. Великий Шелковый путь. // Энциклопедический справочник. – Toshkent.: OʻzME, 1999. – С. 77.
3. Ataxodjajev A. Sugʻd va arab sivilizatsiyalarining oʻzaro taʼsiri // Oʻzbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qoʻshgan hissasi. –Toshkent – Samarqand: Imom Buxoriy respublika ilmiy-maʼrifiy markazi nashriyoti, 2007. 262-263-betlar.
4. Dandamaev M.A., Lukonin V.G. Культура и экономика древнего Ирана. – Москва: Наука, 1980. С. 280-281.
5. Oranskiy I.M. Процессы взаимодействия иранских языков с неиранскими / Основы иранского языкознания. Древнеиранские языки. – Москва: Наука, 1979. С. 38-39.
6. Livshis V.A., Хромов A.L. Согдийский язык / Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – Москва: Наука, 1981. – С. 371.
7. Fridrix I. Istoriya pisma. – Moskva: Nauka, 1979. – S. 105-108.
8. Sulaymonova F. Sharq va Gʻarb. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1997, b.22-39.
9. Shyuven P.O Византийских посольствах к первым Тюркским правителям Согда (проблемы ономастики и топонимики) / Пер. с французского М.И. Филанович // Общественные науки Узбекистана. – 1995. – № 1–3. – С. 33–38.
10. Bolshakov O.G. История халифата. Книга 1. Ислам в Аравии (570-633). – Москва: Наука, 1989. – С. 216.
11. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1994. – 154-bet.
12. Gibb N. A. R. The Arab conquests in Central Asia. – London, 1923. – P. 15.
13. История ат-Табари / Пер. с араб. V.I. Belyaeva с допол. O.G. Bolshakova, A.B. Khalidova. – Ташкент: Фан, 1987. С.347, 95-113; Kadirova T. Из истории



крестьянских восстаний в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965. С.114.

14. Ataxodjayev A. İlk oʻrta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sugʻd munosabatlari. – Toshkent: ART-FLEX, 2010. – 140-145 betlar.

15. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar (Osar ul-boqiya). 1-jild. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2020. – 70-bet.

16. Istoriya at-Tabari / Per. s arab. V.I. Belyaeva s dopol. O.G. Bolshakova, A.B. Xalidova. – Tashkent: Fan, 1987. S. 95-103, 347; Ataxodjayev A. İlk oʻrta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sugʻd munosabatlari. – Toshkent: ART-FLEX, 2010. – 145-bet.

17. Kadirova T. Из истории крестьянских восстаний в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965. С. 101-109.

18. Axunova N. Тюрки в системе государственного управления арабского халифата. – Баку: ЭЛМ, 2004. – 168 с.

19. Ibn al-Asir. Al-Kamil fi-t-taʻrih. Полный свод истории. Избранные отрывки / Пер. с араб., прим. и коммент. P.G. Vulgakova. Доп. к пер., прим. и коммент., введ. и указ. Sh.S. Kamoliddin. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – С. 21.

20. Kamalov A.K. Камалов А.К. Тюрки и иранцы в Танской империи (618-907 гг.): Автореф. дисс. ... док. истор. наук. – Алматы, 2008. – С. 19.

21. История ат-Табари. – С. 44.

22. Bosvort K.E. Мусульманские династии. – Москва: Наука, 1971. - С. 74–75.

23. Bosvort E.K. Мусульманские династии. - С. 75–77.

24. Bosvort E.K. Мусульманские династии. - С. 127–128; Саджиды // Советская Историческая энциклопедия. Том 12 (Репаратсия – Славяне). – М.: Изд. Советская энциклопедия, 1969. – С. 455.

25. Abdullaev N. Oʻzbekiston va islom madaniyati / Oʻzbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qoʻshgan hissasi. – Toshkent – Samarqand: Imom Buxoriy respublika ilmiy-maʼrifiy markazi nashriyoti, 2007. 70-71 betlar.

26. Gyul E. Диалог культур в формировании исламского искусства // O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi. –Toshkent – Samarqand: Imom Buxoriy respublika ilmiy-ma'rifiy markazi nashriyoti, 2007. 81-83-betlar.
27. Ataxodjayeв A. Sug'd va arab tamaddunlarining o'zaro ta'siri hamda yaqinlashuvi // Toshkent islom univemiteti. Ilmiy-tahliliy axborot. 4-son. – Toshkent, 2007. 55-58-betlar.
28. Munavvarov Z.I. O'zbekiston – islom sivilizatsiyasining muhim markazi // O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi. –Toshkent – Samarqand: Imom Buxoriy respublika ilmiy-ma'rifiy markazi nashriyoti, 2007. – 22-25 betlar.
29. Smirnova O.I. Каталог монет с городища Пенджикента. – М.: Наука, 1963. – С. 54, 130–158 (каталог № 799-989).
30. Freyman A.A. Согдийский документы с горы Муг. Вып. 1. Описание, публикация и исследование документов с горы Муг. –Москва.: ИВЛ, 1962. – С. 16,26.
31. Smirnova O.I. из истории Согда. – Москва: Наука, 1970, с. 222; Согдийский документы с горы Муг. выпуск 2: Юридический документы и письма. Чтение, перевод и комментарий В.А.Лившица. – Москва: Изд. Вост. лит., 1962. – С. 111-112.
32. История Табари. – С. 342-441 (комментарий).
33. Buyuk yurt allomalari / tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi U. Uvatov. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 424 b.
34. Narshaxiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far. Buxoro tarixi / A. Rasulov tarj. // Meros turkumi. – Toshkent: Kamalak, 1991. – 124–127 betlar.
35. Ataxodjayeв A. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari . – Toshkent: ART-FLEX, 2010. – 146-bet.

## Процесс интеграции Туранской и арабской цивилизаций в период раннего средневековья

**Аннотация:** В данной статье анализируются процессы, связанные с внедрением ислама с Аравийского полуострова в историко-культурные регионы Центральной Азии - Хорасан и Мавераннахр в эпоху раннего средневековья (вторая половина VII - середина VIII вв.). Описывается новый этап мировой и региональной цивилизации – процесс гармонизации эпохи исламского просветительства и культуры с просвещением и культуры Мовераннахра, а также его высокая цивилизационная значимость. Отмечен факт того, что присоединение Мовераннахра и Хорасана к исламской цивилизации становится важным процессом для развития мировой цивилизации.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, Аравийский полуостров, Арабский халифат, Мовераннахр, раннее средневековье, гармонизация цивилизации, культура, религия, зодчество, искусство и письменность.

## The process of harmonizing Turan and Arab civilizations in the early Middle Ages.

**Abstract:** This article analyzes the processes related to the introduction of Islam from the Arabian Peninsula to the historical and cultural regions of Central Asia - Khorasan and Movarunnahr in the early Middle Ages (second half of the 7th century - middle of the 8th century). The article discusses the spread of Islam to countries in a specific stage of development and its consequences. This work reflects the convergence process of the era of Islamic enlightenment and culture, which was considered a new stage of the civilization of the world and the region, with the enlightenment and cultural values of Movarounnahr, and its high civilizational significance was reflected. The joining of Movarunnahr and Khurasan to the Islamic civilization is noted as an important event for the development of world civilization.

**Key words:** Central Asia, Arabian Peninsula, Arab Caliphate, Movarounnahr, early Middle Ages, civilization, integration, culture, religion, architecture, art and writing.